

**IQTIDORLI O‘QUVCHILARDA O‘ZIGA  
NISBATAN ISHONCH, QOBILIYATNI OSHIRISHNING  
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLARI**

*Mamatqulov Parvoz Xolboyevich*

*Jizzax viloyati Baxmal tumani 47-maktab amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada iqtidorli o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan ishonchni shakllantirish va qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik usullari yoritiladi. Shuningdek, iqtidorli bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, motivatsiya va qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** iqtidorli o‘quvchi, o‘ziga ishonch, qobiliyat, motivatsiya, psixologik yondashuv, pedagogik usullar, ijodkorlik, rivojlanish

**KIRISH**

Bugungi kunda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularning imkoniyatlarini rivojlantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtidorli bolalarda mavjud qobiliyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash ularning kelajakdagi muvaffaqiyatida katta ahamiyat kasb etadi.

Iqtidorli o‘quvchilar ko‘pincha tez fikrlashi, ijodiy yondashuvi va yuqori qiziqishi bilan ajralib turadi. Biroq ayrim hollarda ularda o‘ziga ishonchsizlik, ichki xavotir yoki boshqalardan ajralib qolish hissi ham kuzatilishi mumkin.

Psixologik jihatdan o‘ziga ishonch shaxsning muvaffaqiyatga intilishida asosiy omillardan biridir. O‘quvchi o‘z imkoniyatiga ishonganida yangi g‘oyalarni erkin ilgari suradi va faolroq harakat qiladi.

Iqtidorli o‘quvchilarning qobiliyatini rivojlantirishda rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi. Maqtov va qo‘llab-quvvatlash bolaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Individual yondashuv ham samarali usullardan biridir. Har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va xarakter xususiyatlari turlicha bo‘lgani sababli ta’lim jarayonida ularning individual ehtiyojlari hisobga olinishi kerak.

Psixologik treninglar va ijodiy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Bunday faoliyatlar orqali ular o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rganadi.

Maktab psixologi iqtidorli o‘quvchilarning emotsional holatini kuzatib borishi va kerakli psixologik yordam ko‘rsatishi muhimdir. Chunki ortiqcha bosim yoki yuqori talablar ayrim hollarda ruhiy zo‘riqishga olib kelishi mumkin.

O‘qituvchi tomonidan qiziqarli metod va innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning ijodkorligini rivojlantiradi. Oila ham iqtidorli bolani

qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Ota-onaning ishonchi va rag'bati bolaning o'ziga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Shuningdek, tanlovlar, fan olimpiadalari va turli loyihalarda ishtirok etish o'quvchilarning qobiliyatini namoyon qilish va tajriba orttirishga yordam beradi.

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun talim jarayonini tashkil qilish va boshqarishning o'ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o'quvchi-talabalarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi davlat tarmoq talim standartlari talablariga mosligini taminlash. Ikkinchidan, o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faolligini davlat talim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalari doirasini to'liq qamrab olishga erishish.

Maktab hal etishi lozim bo'lgan masalalardan biri, o'quvchilarning fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishlarini ta'minlash, ularda to'g'ri, ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash, ijodiy bilish qobiliyatlarini o'stirish, o'qitishni hayot bilan bog'lanishini ta'minlashdan iborat.

Maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini o'stirish – o'qitishning bosh masalalaridan biridir. Turli – tuman, chuqur va mustahkam bilimlar, mahorat va malakalar, bilishga qiziqtirish, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, jonbozlik, masalalarni hal etishda aniq bir maqsadga intiluvchanlik va talabchanlik ijodiy qobiliyatlarning zaminlaridir, ijodiy qobiliyatlarning o'zlari esa inson ruhiy kuchining ko'rsatkichidir. Hayotda daholarni boshqalardan ajratib turadigan 4 ta xususiyat:

1. Keyingi hayotga faol tayyorgarlik. Muayyan bir maqsad uchun ter to'kib, mehnat qilish. Harakatlarni bir yo'nalishda jamlash.
2. Qarshisidan boshqa bir ish chiqib qolgan taqdirda ham boshlagan ishidan voz kechmaslik. Shunday qilib, duch kelgan “ yangi ” faoliyat ortidan chopavermay, barqaror istakka ega bo'lish.
3. Yo'lga chiqqandan keyin, ana shu yo'lda irodali va matonatli bo'lish.
4. To'siqlar ostida taslim bo'lmaslik. Ichki barqarorlikni namoyon etish.

Yuqoridagi xususiyatlarni o'rganishda eng avvalo “Iqtidorli” va “Iqtidorli bola” tushunchasini aniqlashdan iborat.

Iqtidor-bu hayot davomida psixikani rivojlanish tizimidir. Bunda iqtidor u yoki bu faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishda kuzatiladi. Iqtidor-bu muvaffaqiyatli bajarilishini taminlovchi qobiliyatlarning o'ziga xos shaklidir.

Qobiliyatlarning o'zaro muvofiqligi boshqa qobiliyatlardagi kamchiliklarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Umumiy qobiliyatlar shaxs imkoniyatini, uning faoliyatini o'ziga xos jihatlarini rivojlantirishni taminlaydi;

Qobiliyatlarning layoqatini, tabiiy asoslarini xarakterini aks ettiradi;

Faoliyatdagi muvaffaqiyatni namoyon qiluvchi ichki sharoitdan biri talantdir. Iqtidorli bola-bu u yoki bu faoliyatda yorqin. Bazida uzluksiz muvaffaqiyatlari bilan

ajralib turuvchi boladir.

Bugungi kunda ko'pgina psixologlar iqtidorning rivojlanishi-bu nasl (irsiy layoqat) va ijtimoiy muhit (o'yin, o'qish, mehnat jarayonlari) ning o'zaro murakkab tasiri natijasida ekanini tan olmoqdalar. Lekin shu individual iqtidorni shakllanishi asosida yotuvchi bilan birga shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalashning psixologik mexanizmlarini rolini inkor etib bo'lmaydi.

Ko'pgina psixologlar kreativlikni (ijodiy potensial) iqtidorning muhim va mustaqil omil deb hisoblaydilar. Amerikalik psixolog G. Torrens kreativlikni noaniq va informatsiya tanqisligida zo'riqishning bartaraf etishga bo'lgan kuchli ehtiyojni natijasida yuzaga keladigan jarayon deb izoh beradi. Bu jarayon o'zida muammoni aniqlashtirish, farazni tekshirish kabi holatlarni mujassamlashtiradi. Ijodiy samaradorligini taminlash uchun o'zida shaxsning o'rtadan yuqori intellektual darajasini mujassamlashtirgan kreativlik muhim ahamiyat kasb etadi qolaversa, iqtidorli bolalarning ijodiy potentsiallarini namoyon qilishlarida ularning motivatsion shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy muhit ham xal qiluvchi rol uynashi ko'pgina tadqiqotlarda isbotlangan. Dj.Renzulli konsepsiyasiga muvofiq iqtidor 3 elementining o'zaro tasiri natijasida rivojlanadi: o'rtadan yuqori darajadagi intellekt kreativlik va masalalarga jalb bo'lganlik. U yoki bola ko'pgina faoliyat sohalarida aytarli muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Qolaversa, muayyan bir faoliyat ko'rinishida ko'pgina bolalar o'zlarining layoqatlaridan kelib chiqib keng qamrovda yondashishlari mumkin. Bolaning psixologik imkoniyatlari va yosh davrlari xususiyatlariga ko'ra turlicha iqtidor ko'rinishlari mavjud.

Iqtidorni namoyon bo'lishiga xalaqit beruvchi omillardan biri zaruriy bilim kunikma, malakalarni yetishmasligidir. Agar bolalarda zaruriy bilimlarni o'zlashtirsa uning iqtidori namoyon bo'la boshlaydi. Bazi hollarda esa bola taraqqiyotidagi qiyinchiliklar ham uning iqtidorini niqoblab qo'yadi. Masalan, xavotir, qurquv, nizolar uning iqtidorini susaytirishi mumkin. Boshqa tomondan, iqtidorni namoyon qilish oilaning taminlanganligiga ham bog'liq.

Bizga ayonki moddiy taminlangan bolalarda xar tomonlama imkoniyatlar keng bo'ladi, shuning uchun iqtidorni namoyon qilish uning o'ziga bog'liq kam taminlangan oila farzandlarida iqtidorni namoyon qilishga hohish bo'lgan bilan ayrim vaziyatlarda "qo'l kaltalik" qiladi.

Iqtidorli bolalarning o'ziga xos jihatlari bizning hayotimizni rang-barangligini taminlaydi va jamiyat uchun foydalidir. Birinchidan, iqtidorlilarda xamma narsaga tasirchanlik kuzatilib adolatparvarlik hissi kuchli rivojlangan; ular ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritishga o'zgartirishga qobiliyatli bo'ladilar. Ikkinchi xususiyat, bilimni faolligini va intellektning yuqori darajadagi taraqqiyoti atrof - muhit haqida yangi malumot olish imkonini beradi.

Iqtidorli bolalardagi intuntiv ijodiy tafakkurning o‘zaro muvofiqligi yangi bilimlar egallash jarayoni samarali bo‘lib qoladi.

Uchinchi xususiyat, ko‘pgina iqtidorli bolalarga omma hayotida qiziqarli va muhim loyihalarni amalga oshirishga imkon beruvchi ijodiy qobiliyatlar va muhim bilimlarni egallashdagi yuqori energiya maqsadga intiluvchanlik va qatiyatlilik xislatlari xosdir.

1. Iqtidorlilikni belgilari.

Iqtidorlilikni belgilari-bu iqtidorli bolaning real faoliyatida namoyon bo‘luvchi va uning harakatlarini kuzatish natijasida baholanuvchi xususiyatdir. Iqtidorlilik belgilari faoliyatni amalga oshirish darajasi bilan bog‘liqdir. Iqtidorlilik belgilarini muhokama qilishdan avval xoxlayman va “qila olaman” tushunchalarini muhokama qilish kerak. Shuning uchun xam iqtidorlilik belgilari iqtidorli 2 muhim jihatini o‘zida mujassam etadi: instrumental va motivatsion instrumental-bu uning faoliyati usulini xarakterlaydi. Motivatsin-bolaning faoliyatining u yoki bu tomoniga, qolaversa o‘z faoliyatiga munosabatini xarakterlaydi. Iqtidorli bola hulqining instrumental jihati quyidagi belgilarda kuzatiladi.

Iqtidorlilikni namoyon qiladigan psixologik xususiyatlar faqatgina iqtidorlik bilan kechadigan belgilar sifatida ko‘rilishi lozim shuning uchun yuqorida sanab utilgan belgilar faqatgina iqtidorni mavjudligini taxmin qilishimizga imkon beradi xolos.Zamonaviy konsepsiyalarda intellekt ko‘rinishlariga muvofiq iqtidor ko‘rinishlari ham ajratilgan. Iqtidorlikda sifatliy jihatlar bilan bir qatorda miqdoriy jihatlarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin.

Iqtidorlilikning sifatliy xarakterlarini tahlil qilish shaxsning u yoki bu faoliyat turida namoyon qiladigan maxsus psixik xususiyatlari bilan bog‘liq iqtidorlilikning miqdor xarakteristikasini tahlil qilish insonning psixik imkoniyatlarini namoyon qilish darajasi bilan bog‘liq.

Faoliyat turlari va uning psixologiya sohalardagi o‘rniga ko‘ra turlari faoliyatning 5 turi va psixologiya sohalarning o‘zaro hamoxangligidoirasida ajratiladi. Asosiy 5 faoliyat turlari: amaliy, nazariy, (bilim), badiiy-estetik, kommunikativ va manaviy ahloqiy psixik sohalar: intellektual emotsional vak motivatsion-irodaviy. Shunga muvofiq iqtidorlilikning quyidagi turlari farqlanadi. Amaliy faoliyatda sportiv tashkilotchilik iqtidorini: bilim (nazariy) faoliyatlarpda intellektual iqtidorni: badiiy-estetik faoliyatda xoreografik, sahnaviy sheriyat rassomchilik va musiqiy iqtidorni kommunikativfaoliyatlarda eng avvalo liderlik va attraktiv iqtidorni: manaviy-ahloqiy faoliyatda esa yangi ahloqiy qadriyatlar va insonlarga xizmat qiluvchi marifatni yaratish iqtidorini ajratib ko‘rstishi mumkin.

Yaqqol iqtidor bu bolaning yosh va ijtimoiy qonuniyatlar bilan hisslagandagiga nisbatan faoliyatni bo‘luvchi psixik taraqqiyotining erishilgan ko‘rsatkichini psixologik xarakteristikasidir. Bu vaziyatda keng qamrovli faoliyat turlari haqida gap

ketmoqda.

Bunday iqtidor negizi bola talanti yotadi. Talantli bola-bu faoliyatni bajarishda obektiv yangilik va ijtimoiy ahamiyati darajasiga javob beruvchi natijalarga erishuvchi boladir. Talantli bola faoliyati o'z ishining ustasi bo'lgan ekspertlar tomonidan baholanadi.

Potensial iqtidor-bu bolaning u yoki bu faoliyat turida yuqori psixik imkoniyatlarga erishishni belgilovchi psixologik xususiyatlar bo'lib, ayrim kamchiliklar tufayli ayni damda namoyon bo'lmagan iqtidordir. Ushbu potensialning rivojlanishiga atrofdagi salbiy omillar tasir qilayotgan bo'lishi mumkin (nomaqbul oila noaniq motivatsiya, o'zini boshqara olmaslik va boshqalar). Potensial iqtidorni aniqlash uchun diagnostik metodikalarni qo'llash va zaruriy choralarni ishlab chiqishi ularning kelgusidagi taraqqiyoti uchun zamin hozirlaydi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, iqtidorli o'quvchilarda o'ziga nisbatan ishonch va qobiliyatni rivojlantirish psixologik-pedagogik yondashuvni talab qiladi. Qo'llab-quvvatlash, rag'bat va individual yondashuv orqali ularning imkoniyatlarini to'liq namoyon etish mumkin.

### **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: "Noshir", 2010.
2. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
3. Ибраимов Х. И. Креативность как одна из характеристик личности будущего педагога //Наука, образование и культура. – 2018. – №. 3 (27). – С. 44-46.
4. Ibragimovich X. I. O 'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA KREDIT-MODUL TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFICMETHODICAL JOURNAL. – 2021. – С. 209-214.
5. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.
6. Ziyo net